

## **SOLIQ YIG'IMLARINING IQTISODIY MOHIYATI**

*Anarboyev Elyor Nemat o'g'li*

*O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti*

**Annotatsiya:** Yetakchi mamlakatlarda byudjet siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida byudjet xarajatlarining optimallashtirilishi, manzilliligi va natijaga erishilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, byudjet riski kategoriyasi, O'zbekiston sharoitida qo'llanilmagan bo'lsada, ko'plab davlatlar byudjet siyosatining ajralmas bo'lagi hisoblanadi. Byudjet xarajatlarining manzilliligini ta'minlash orqali natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirish amaliyotini joriy etishga erishish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada, o'rta muddatli byudjetlashtirish omili asosiy usullardan biri ekanligi ko'plab davlatlar tajribasidan ma'lum bo'lmoqda.

**Kalit so'zlar:** moliya, soliq, soliq siyosati, davlat byudjeti, yig'imlar, tushumlar.

Byudjet mablag'laridan foydalanish orqali davlat jamiyatdagi iqtisodiy muvozanatni ta'minlashga harakat qiladi. Ma'lumki, moliya kategoriyasining funktsiyasida taqsimlash (qayta taqsimlash) jarayoni yuzaga keladi. Moliya tizimida mamlakatdagi yaratilgan yalpi qiymatning bir qismi soliqlar yordamida byudjet tizimiga taqsimlanadi. iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari o'z daromad va mulklari hisobidan davlatga majburiy to'langan soliqlar davlat ixtiyoriga kelib tushadi. Moliyaning qayta taqsimlash funktsiyasi ko'magida jamlangan mablag'lar byudjet yordamida qayta taqsimlanadi.

Amir Temur davrida ham byudjet siyosatining o'ziga xos fundamental asoslari yaratilgan. Jumladan, Sohibqiron saltanatida bir nechta vazir faoliyat olib borgan. "Birinchi vazir mamlakat va aholi ishlari vaziri bo'lgan, u soliq va o'lponlarni to'plash, taqsimlash, kirim-chiqimlarni belgilash va hisob-kitob qilish, mamlakatning obodonligi bilan shug'ullangan. ikkinchi vazir – qo'shinlar vaziri bo'lib, u askarlar (sipohiy)ga beriladigan maosh, xizmat evaziga beriladigan yer-suv yoki boshqa mulkni idora qilgan.

Uchinchi vazir – egasiz qolgan mulklarni boshqarish va davlatga tushadigan zakot hamda bojlarni saqlash bilan shug'ullangan. Qolgan uchta vazir chegara tumanlaridagi moliyaviy masalalar bilan shug'ullangan. Hadya qilingan mamlakatlarda soliqlarni yig'ib, aholining kayfiyatini kuzatib turuvchi, xarajatlarni chiqim daftariga yozib boruvchi ikki nafar vazir tayinlangan. Barcha vazirlar devonbegiga bo'ysunganlar" [1].

Byudjet siyosatini amalga oshirish masalalari bir qator O'zbekistonlik olimlar tomonidan ham o'rganilgan. Masalan, B.Jo'rayev bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat byudjetining o'rni masalalariga alohida to'xtalib o'tgan [2]. U byudjet orqali davlatni boshqarishda uchta tamoyilni ko'rsatib o'tadi, bular – samaradorlik, barqarorlik va ijtimoiy adolatlilik. Shuningdek, byudjetning barqarorligini ta'minlashda xarajat vakolatlarining bo'linishi ma'lum tamoyillarga asoslanishini ta'kidlab o'tadi. Xususan, ular quyidagilardir:

- xarajat vakolatlarining byudjet xizmatidan foydalanuvchilarga mumkin qadar yaqinligi;
- bir qator xarajatlarni markazlashgan tartibda amalga oshirishning foydaliligi;
- tashqi samaraning hisobga olinishi.

Ta'kidlash joizki, mamlakatimiz olimlari tomonidan shakllantirilgan ilmiy xulosalar amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, mamlakatimizda 2018 yildan rivojlana boshlagan fuqarolar uchun byudjet kontseptsiyasining shakllanishini misol sifatida keltirishimiz mumkin. Bu borada, mamlakatimizda yetarli darajada tajriba to'plangan, deb o'ylaymiz. Masalan, o'z-o'zini boshqarish subyekti bo'lgan mahalla instituti jamoatchilik nazoratining ro'yobga chiqarilishida muhim rol o'ynaydi. Byudjet siyosatining amalga oshirilishida jamoatchilikning ishtiroki to'g'risidagi jihatlariga xorijlik olimlar tomonidan ham e'tibor qaratilgan. Jumladan, jamoatchilik boshqaruvi tamoyillari to'g'risida E.Duplinskaya quyidagi fikrlarni bildirib o'tadi [3]. Ular: barqarorlik, jamoatchilikning ishtiroki, manfaatdorlik, javobgarlik kabi jihatlardir. Mamlakatimizda jamoatchilik boshqaruvining ishtirokini nazarda tutuvchi islohotlar boshlangan bo'lsada, ba'zi xarajatlarni markazlashtirilgan holda ta'minlanishi dominant

xususiyatga egaligi ko'zga tashlanmoqda. Masalan, mudofaa va huquqni muhofaza qiluvchi soha xarajatlarini keltirish mumkin. Shuningdek, byudjetga moliyaviy yukni kamaytirish maqsadida, byudjetdan tashqari mablag'larni shakllantirish mexanizmiga shart-sharoit yaratish haqida xulosalar berilgan. Ta'kidlash lozimki, byudjet makroiqtisodiy miqyosda daromadlarni muvozanatlash vositasi sifatida ham o'z vazifasini bajaradi. Mazkur masala nafaqat tarixiy jihatdan, balki zamonaviy jihatdan ham tadqiqotlarda o'z aksini topmoqda. Iqtisodiy jihatdan, "byudjet" tushunchasi byudjet muassasalarining o'zaro iqtisodiy munosabatlarini o'zida aks ettirgan kategoriya sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa ba'zi zamonaviy nazariyalarda tor munosabatlarni aks ettiradi, degan fikrni o'rta qilib chiqadi. Masalan, neoinstitutsional nazariyada byudjet davlatning huquqiy tuzilmasi bilan bog'liq tarzda yuzaga kelishi qayd etib o'tiladi. Bu esa byudjetga ichki tomondan iqtisodiy munosabatlar yig'indisi sifatida, tashqi tomondan huquqiy tuzilma tarzidagi qarashlarni vujudga keltiradi. Shu boisdan, byudjet siyosatini ishlab chiqishda, fikrimizcha, unga ham iqtisodiy, ham huquqiy munosabat tarzida yondashish zarurati yuzaga chiqadi. N.Kozlov mahalliy boshqaruv vakolatlarini amalga oshirishning moliyaviy ta'minotini o'ziga xos jihatlarini ko'rib o'tadi. U Rossiya Federatsiyasi byudjet tizimi byudjetlari misolida, mahalliy boshqaruv organlariga o'z funktsiya va vazifalarini bajarishida ularga ma'lum daromadlarni birlashtirish zaruriyatini asoslab beradi [4].

Bu borada, O'zbekistonlik olimlardan A.Suvanov [5] byudjet munosabatlarini institutsional jihatdan tahlil qilgan holda, mahalliy byudjetlar oldida quyidagi muammolar mavjudligini ko'rsatib o'tadi:

- hududlar darajasida byudjet resurslariga bo'lgan ehtiyojni qondira olmaslik;
- byudjet tizimida mahalliy byudjetlarning mustaqilligi haqida va uning moliyaviy-iqtisodiy zaminlariga doir tortishuvlarning ilmiy asoslanishini hamda bu boradagi huquqiy-iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish;
- rivojlangan mamlakatlar byudjet amaliyotida keng qo'llanilayotgan byudjet resurslarini mutanosib tarzda taqsimlash muammosi.

Byudjet siyosatiga hududlarning moliyaviy barqarorligi jihatidan baho berish xorijlik olimlardan S.Bogomolovning ham ilmiy ishlarida namoyon bo'ladi. Olim tomonidan byudjet tizimi barqarorligini ta'minlashda quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish taklif etilgan [6]:

- hudud va hududiy tuzilmalar byudjetlari daromad/xarajatlari moddalarini guruhlashtirish va unifikatsiyalash orqali byudjet ijrosi hisoboti ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan;
- hududlarda byudjet barqarorligi jami indikatorlar tizimi asosida baholash uslubi ishlab chiqilgan;
- hudud va hududiy tuzilmalar byudjet barqarorligini moliyaviy oqimlarni inobatga olgan holda byudjet risklarini baholash tizimi shakllantirilgan;
- byudjet xarajatlari mezonlari tizimi ishlab chiqilgan.

Shuningdek, byudjet siyosatiga institutsional jihatdan yondashgan olimlarimizdan biri X.Qurbonov [7] hisoblanadi. U byudjetlararo munosabatlarni tahlil qilish asosida quyidagi tamoyillarni keltiradi:

- byudjet xarajatlarini byudjetlararo taqsimlash va birlashtirish;
- tartibga soluvchi daromadlarning byudjet tizimining turli darajalari bo'yicha chegaralanishi;
- turli darajadagi byudjetlarning tengligi;
- hududlarning iqtisodiy salohiyatidan foydalanishni rag'batlantirish.

Bizningcha, moliyaning ijtimoiy funktsiyasi nafaqat byudjetning ijtimoiy soha xarajatlari orqali, balki yalpi ichki mahsulotning qayta taqsimlanishida ham muhim ahamiyatga ega. Umuman olganda, hududlarning moliyaviy salohiyatidan kelib chiqib, byudjet xarajatlarning tutgan o'rni va roli turlicha bo'ladi. Masalan, moliyaviy salohiyati yuqori bo'lgan hududlarda byudjet xarajatlarga bo'lgan ehtiyoj yuqori bo'lmaydi. O'z navbatida, ushbu hududda davlat zimmasidagi vazifalarni pulli tarzda amalga oshirish mumkin. Shuningdek, moliyaviy salohiyati yuqori bo'lmagan hududlarda byudjet mablag'lariga bo'lgan ehtiyoj yuqori bo'ladi. Natijada, byudjetning yuqori turuvchi

byudjet mablag'lariga bo'lgan talabi ortadi va davlat zimmasidagi vazifalarni pulli tarzda etkazish imkoniyati qisqaradi.

Mamlakatimizda byudjet siyosatini takomillashtirishda xorijiy tajribalarni inobatga olgan holda quyidagilarga e'tibor qaratish muhim hisoblanadi:

- byudjet siyosatini amalga oshirishda yakuniylik, natijaviylik va manzillilik kabi tamoyillarga e'tibor berishni taqozo etuvchi metodologik asoslarni yaratish;
- byudjet daromadlarini tor doiradagi manbalarga bog'liq bo'lib qolmasligini ta'minlash va soliqsiz daromadlar ulushini oshirib borish;
- byudjet mablag'laridan byudjetdan tashqari jamg'armalarning xarajatlarini moliyalashtirish amaliyotini qisqartirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- byudjet xarajatlari maqsad ko'rsatkichlarining ma'lum mezonlar yordamida baholanib borishini ta'minlash amaliyotini tatbiq etish.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Муқимов З. Амир Темур тузуклари (тарихий-ҳуқуқий тадқиқот). Иккинчи тўлдирилган нашри. – Самарқанд: СамДУ, 2008. – 131 бет.
2. Жўраев Б.А. Бозор иқтисодиёти шароитида Давлат бюджетининг роли: и.ф.н. ... авторферат. –Тошкент, БМА: 2001. – 21 б.
3. Дуплинская Е.Б. Оценка результативности бюджетного регулирования в условиях модернизации публичного управления: автореферат ... к.э.н. - НОУ ВПО «Сибирская академия финансов и банковского дела». - Новосибирск, 2011. – 20 с.
4. Козлов Н.И. Финансовое обеспечение реализации полномочий местного самоуправления автореферат ... к.э.н. – ФГБОУ ВПО «Государственный университет – учебно-научно-производственный комплекс». - Орел, 2012. – с. 25.
5. Суванов А.Т. Маҳаллий бюджетлар ижроси самарадорлигини ошириш йўналишлари (Наманган вилояти мисолида): и.ф.н. ... автореферат. – Тошкент: БМА, 2005. – 21 бет.
6. Богомолов С.В. Оценка бюджетной устойчивости и эффективности управления бюджетными средствами муниципальных образований и субъекта РФ: автореферат ... к.э.н. – ГОУ ВПО «Нижегородский государственный университет им. Н.И. Лобачевского». - Нижний Новгород, 2010. – с. 28.
7. Қурбонов Х.А. Бюджетлараро муносабатларни такомиллаштириш: и.ф.н. ... автореферат. – Тошкент: БМА, 2010. – 22 бет.